

16-01/105
13.11.2024 y.

“TASDIQLAYMAN”



Viloyat hokimi

E. Turdimov

2024-yil 13-noyabr

**Viloyat hokimligida o'tkazilgan apparat yig'ilishi
BAYONI**

2024-yil 12-noyabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:

E. Turdimov – viloyat hokimi

Ishtirok etganlar:

Viloyat hokimining o'rinbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari mas'ul xodimlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
(ro'yxat bo'yicha).

KUN TARTIBI:

1. Ekologiya sohasida hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli to'g'risida.
2. Boshqa masalalar.

1-masala

(Turdimov, Qobilov, Tuxtayev, Ro'ziyev, shahar va tuman hokimlari, Turdimov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig'ilish qaror qiladi:

1. Viloyat hokimining o'rinbosari (**X. Tuxtayev**) Bulung'ur, Jomboy, Qo'shrabot, Pasdarg'om, Paxtachi, Toyloq tumanlari va Kattaqo'rg'on shahrida og'ir atletika, karate, Ishtixon, Nurobod tumanlarida karate, taekvondo, Kattaqo'rg'on tumanida og'ir atletika, taekvondo sport turlari bo'yicha to'garaklar bugungi kunga qadar tashkil etilmaganligi sababli ushbu tuman va shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy

rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlaridan tushuntirish xatlari olinishini ta'minlasin.

2. 2024-yil Milliy terma jamoasining asosiy tarkibiga sportchi yetkazib berish bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkillashtirmaganligi sababli quyidagilar:

Kattaqo'rg'on tumani hokimi (**J.Nasriddinov**) tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari O.Shirinovga;

Toyloq tumani hokimi (**B.Bobonazarov**) tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Haberdiyev;

Viloyat Sport boshqarmasi boshlig'i (**Sh.Ro'ziyev**) Kattaqo'rg'on tumani sport maktabi direktori F.Ravshanovni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda egallab turgan lavozimidan ozod etish masalasini ko'rib chiqish va Oqdaryo tumani sport maktabi direktori G.Tursunovaga, Toyloq tumani sport maktabi direktori I.Kenjayeumlarga nisbatdan qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda intizomiy jazo chorasi qo'llash masalasini hal etsin.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi (**N.Mo'minov**), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (**B.Mirzayev**) Kattaqo'rg'on va Toyloq tumanlari sport maktablari direktorlarining besh yillik hamda Bulung'ur va Oqdaryo tumanlari sport maktablari direktorlarining bir yillik faoliyatlariga qonunchilikda belgilangan tartibda **bir hafta muddatda** o'rganib chiqilishini va natijasi bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritilishini ta'minlasin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosari (**X.Tuxtayev**), viloyat Sport boshqarmasi boshlig'i (**Sh.Ro'ziyev**) ishchi guruh tuzgan holda sport maktablarida olimpiya (paralimpiya) va milliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni saralash bo'yicha eng qoloq hududlarda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman va shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari hamda sport maktablari direktorlari kamida 50 nafardan imkoniyati cheklanganlarni sportga qamrab olish chorasini ko'rsin.

5. Viloyat Yoshlar ishlari agentligi (**S.Boboyev**) "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida ommaviy sport musobaqalari o'tkazilishi borasidagi ishlarni talab darajasida tashkillashtirmaganligi sababli **Kattaqo'rg'on shahrining** "Alisher Navoiy", "Haydarchaman", "Ochildimurod Miriy", **Oqdaryo tumanining** "Dahbet" va "Galaravot", **Urgut tumanining** "Kamangaron", "Terak", "Mazortepa" mahalla fuqarolar yig'inlari yoshlar yetakchilaridan tushuntirish xatlari olinishini ta'minlasin hamda ularning bu boradagi faoliyatiga amaliy yordam ko'rsatsin.

6. Viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyati boshqarmasi (**Sh.Yuldashev**) tuman va shahar sektor rahbarlari bilan birgalikda **o'n besh kun muddatda** joylardagi sport maydonchalari, maktablardagi sport zallaridagi kiyinish va yuvinish xonalarini hamda jihozlarini tartibga keltirib, sportchilarga yetarlicha sharoit yaratilishini ta'minlasin.

2. Boshqa masalalar

(Turdimov, Abilov, Xudayberdiyev, Tuxtayev, Mirzayev, Eshonqulov, shahar va tuman hokimlari, Turdimov)

7. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (**F.Abilov, O.Xamrayev, A.Shukrov**) "Edo.ijro.uz" tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Administratsiyasi tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda sustkashlikka yo'l qo'yganliklari uchun kotibiyat mudirlarining mas'uliyatini oshirsin va ularning bu kabi kamchiliklarga yo'l qo'yishi kelgusida intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga asos bo'lishi to'g'risida ogohlantirsin.

8. Viloyat hokimligi ijro nazorati bo'limi (**F.Mamatqulov**) **uch kun muddatda** "Edo.ijro.uz" tizimi orqali kelgan topshiriqlar ijrosini ta'minlamagan mas'ullar bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritсин.

9. Viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**)ga e-maktab (kundalik.com) platformasiga yolg'on ma'lumot kiritib kelinayotganligi sababli Toyloq tumani 47-maktab direktori N.Rahimov, Kattaqo'rg'on tumani 60-maktab direktori G'.Eshquvvatov, Samarqand tumani 3-maktab direktori M.Berdiqulova, Bulung'ur tumani 19-maktab direktori D.Ablakulov, Nurobod tumani 12-maktab direktori O.Imomov, Urgut tumani 70-maktab direktori Sh.Sharopov va 66-maktab direktori X.Yorovlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda "**hayfsan**" intizomiy jazo choralari ko'rish tavsiya etilsin.

10. Tuman va shahar sektor rahbarlariga o'zlarining hududlaridagi maktab mas'ullari bilan yig'ilish o'tkazish hamda maktab direktorlaridan e-maktab (kundalik.com) platformasiga yolg'on ma'lumotlarni kiritmaslik yuzasidan zarur choralar ko'rish tavsiya etilsin.

11. Viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**) **ikki hafta muddatda** "kundalik.com" platformasi va o'quvchilarning davomati yuzasidan tahliliy ma'lumotlar tayyorlab, kengaytirilgan tarzda muhokama yig'ilishini o'tkazish choralari ko'rsin.

12. Tuman va shahar hokimlari O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (**Sh.Yuldashev**), Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (**M.Quvondiqov**) bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi "Mahallalar faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi 294-son qarori ijrosi bo'yicha uch kun muddatda

qaror talablariga asosan mavjud mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish bo'yicha viloyat hokimligi huzuridagi I doraviy komissiyaga asoslantirilgan taklif kiritilishini ta'minlasin.

13. Tuman va shahar sektor rahbarlari ichimlik suvi ta'minoti va oqova xizmatidan debitor qarzdorliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish chorasini ko'rsin.

14. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (**B.Mirzayev**), viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**), viloyat Madaniyat boshqarmasi (**O.Xaitov**) **bir hafta muddatda** ijtimoiy soha obyektlarining debitorlik qarzdorliklarini to'liq qoplab berish chorasini ko'rsin.

Qarzdorligi qonunda o'rnatilgan tartibda qoplab berilmagan ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda uning tuman va shahar bo'limlari boshliqlariga nisbatan o'rnatilgan tartibda intizomiy jazo choralari qo'llanilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

15. Tuman va shaharlar hokimlari noyabr oyi yakuniga qadar Davlatimiz Rahbari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasini tadbirkorlik faoliyati uchun jozibador hududga aylantirish bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha zaruriy choralar ko'rilishini ta'minlasin.

16. Viloyat Adliya boshqarmasi (**S.Sattorov**), viloyat Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi (**A.Egamov**), viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**) 2022-2023-yillar davomida qishloq xo'jaligiga hamda dehqon xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini noreal narxlarda auksion orqali yutib olib, bugungi kunda soliq to'lovlari to'lanmayotgan, maqsadsiz foydalanilayotgan yerlarni qonunda o'rnatilgan tartibda davlat zaxirasiga qaytarish chorasini ko'rsin.

17. Viloyat hokimining o'rinbosari (**Sh.Xudayberdiyev**) uch kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosini talab darajasida tashkil qilmaganligi hamda o'z xizmat vazifalarini bajarishda sustkashlikka yo'l qo'yganligi sababli "Zarafshon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i A.Boysariyevni egallab turgan lavozimidan ozod etish bo'yicha Suv xo'jaligi vazirligiga taqdimnoma kiritilsin.

18. Viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**), "Zarafshon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi o'rinbosari (**M.Turniyazov**) bilan birgalikda 2024-yil davomida yetkazib berilgan suv resurslari uchun suv solig'ini undirilishini ta'minlasin.

19. Viloyat hokimining o'rinbosari (**Sh.Xudayberdiyev**), viloyat Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (**A.Rabbimov**), "Zarafshon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi o'rinbosari (**M.Turniyazov**), viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (**B.Tugalov**) tuman sektor rahbarlari bilan birgalikda 2024-yil

kuz va 2025-yil bahor oylarida viloyatdagi fermer xo'jaliklarning ichki ariqlarini betonlashtirish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rsin.

Viloyat hokimligi kotibiyat mudiri A.Toshnazarov ushbu masala yuzasidan har hafta apparat yig'ilishiga axborot kiritib borilishini ta'minlasin.

20. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Yig'ilish bayonini
rasmiylashtirdi**



E.Jonibekov